



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH, MUAMMOLI VAZIYATLARNI HAL
ETISH VA MUSTAQIL QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI**

Dexqonova Jamilaxon Yodgorjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

e-mail: dexqonovajamilaxon9@gmail.com

+998999930723

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik zarurati yoritiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyalari hamda innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat, mustaqil qaror qabul qilish, pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, tafakkur rivoji, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi*

Аннотация: *В данной статье рассматривается необходимость развития у учащихся навыков критического мышления, решения проблемных ситуаций и самостоятельного принятия решений. В условиях современной системы образования особое значение приобретает лично-ориентированный подход, направленный на активизацию мыслительной деятельности учащихся, развитие у них умений анализа, сравнения, обобщения и самостоятельного нахождения решений в проблемных ситуациях. Также в статье анализируются возможности использования интерактивных методов, технологий проблемного обучения и инновационных подходов для повышения интеллектуального потенциала учащихся.*

Ключевые слова: *критическое мышление, проблемная ситуация, самостоятельное принятие решений, педагогический подход, интерактивные методы, проблемное обучение, инновационные технологии, развитие мышления, самостоятельное мышление, эффективность обучения*

Bugungi globallashuv jarayonida, ayniqsa raqamli ta'lim muhitida tanqidiy fikrlash insonning intellektual salohiyatini belgilovchi asosiy kognitiv jarayonlardan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va ongli qaror qabul qilish zaruratining kuchayishi ta'lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



qilmoqda. Shu bois Suqrot, Aristotel, Al-Farobiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning tafakkur haqidagi qarashlari hamda Dewey, Paul, Elder, A. Abdurakhmonov, O. Usmonov, B. Nazarov, Sh. Ismoiljonov va N. Mamajonova kabi zamonaviy olimlarning tanqidiy fikrlash nazariyalari o'quvchi shaxsining tahlil, baholash va asosli xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "tanqidiy tahlil va shaxsiy javobgarlik" tamoyili ham ta'lim jarayonida fikrlovchi, faollik ko'rsatuvchi, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash zaruratini yana-da kuchaytirmoqda. Zamonaviy ta'lim talabalarni noaniq va murakkab vaziyatlarga moslasha oladigan, mavjud ma'lumotni mustaqil tahlil qiladigan va muqobil yechimlar taklif eta oladigan darajada tayyorlashni ko'zlaydi. Shu munosabat bilan pedagogika jarayonida demokratik tamoyillar, innovatsion texnologiyalar, noan'anaviy yondashuvlar hamda faol ta'lim metodlari keng qo'llanilmoqda. Xususan, chet tili ta'limida talabalar tanqidiy fikrlash orqali matnning mohiyatini angelaydi, dalillarni tahlil qiladi, madaniyatlararo muloqotda ongli qarorlar qabul qilishni o'rganadi. Umumta'lim va oliy ta'lim tizimida buyuk mutafakkirlar merosidan foydalanish, mustaqil fikrlashga asoslangan darslarni tashkil etish ham bugungi kunda o'quvchi va talabalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Tanqidiy fikrlashning falsafiy asoslari. Falsafa tarixida tanqidiy fikrlash inson tafakkurining eng muhim mezonlaridan biri sifatida talqin qilib kelinadi. Tafakkurning mazmuni, shakli va ongning voqelikka munosabati bilan bog'liq masalalar qadimdan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lgan. Tanqidiy fikrlashning falsafiy ildizlari insonning borliqni anglash, haqiqatni izlash, dalillash va asoslash kabi faol mental jarayonlarini o'rganishga qaratilgan konsepsiyalarda o'z aksini topadi. Antik davr falsafasida tanqidiy fikrlash. Antik falsafa tanqidiy fikrlashning shakllanishida asosiy bosqich bo'lib, unda tafakkurni mantiqiy asoslash metodlari shakllangan. Sokratning mashhur "sokratik suhbat" (maievtika) usuli tanqidiy fikrlashning ilk metodik asoslaridan biri sanaladi. Uning mazmuni insonni doimiy savollar berishga, mavjud qarashlarni shubha ostiga olishga va fikrni dalillar bilan mustahkamlashga undashdan iborat bo'lgan. Sokrat fikrlashni haqiqatga eltuvchi faol jarayon deb bilgan. Platon tanqidiy fikrlashni dialektika orqali izohlab, haqiqatga qarama-qarshi g'oyalar to'qnashuvi va mantiqiy mushohada orqali erishilishini ta'kidlagan. Aristotel esa tanqidiy fikrlashni ilmiy tafakkurning asosi sifatida qarab, mantiq, kategoriyalar, syllogizm, deduksiya-induksiya kabi tushunchalarni ishlab chiqqan. Uning nazariyasi insonning fikrni tahlil qilish, baholash va asoslash qobiliyatlariga keng ilmiy asos yaratdi. Sharq uyg'onish davri olimlari ham tanqidiy tafakkurning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. AlFarobiy "Aql haqida risola" (Risala fi-l-axlaq) asarida tafakkurni insonning eng oliy qobiliyati sifatida sharhlab, mantiqiy tahlil va bilishga yo'naltirilgan fikrlash tamoyillarini asoslagan. Ibn Sino "Kitob ash-Shifo" va "Donishnoma" asarlarida mantiqiy fikrlash, dalillash, sabab-oqibat tahlili, tajribaga asoslangan xulosa chiqarishni tanqidiy fikrlashning poydevori sifatida bayon qilgan. Abu Rayhon Beruniy esa ilmiy-tanqidiy yondashuvning yorqin namunasini yaratib, har bir bilimni shubha, tajriba va



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



tahlil orqali tasdiqlash zarurligini ta'kidlagan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy solishtirish usuli bugungi ilmiy metodlar bilan uyg'unlashadi. Osiyo falsafasida, xususan Xitoy mutafakkiri Konfutsiy, hind faylasufi Nagarjuna, yapon olimi Kukai kabi mutafakkirlar tafakkur tarbiyasi, ma'rifat, o'zini tekshirish va fikran mustaqillik orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish g'oyalarini ilgari surgan. Shu tariqa antik davr mutafakkirlari tanqidiy fikrlashni insonning ongli, mantiqiy va dalillangan fikrlash faoliyati sifatida shakllantirib, bugungi zamonaviy tanqidiy tafakkur konsepsiyalarining falsafiy poydevorini yaratgan. Yevropa mumtoz falsafasida tanqidiy tafakkur (ilmiy talqin). Yevropa mumtoz falsafasi tanqidiy fikrlashning epistemologik asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. XVII–XVIII asr mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy kontsepsiyalar tafakkurning tanqidiyligini bilish jarayonining markaziy elementi sifatida belgilab berdi. R. Dekart tomonidan ilgari surilgan "universal shubha" tamoyili tanqidiy tafakkurning dastlabki ilmiy-metodik modeli bo'lib, u mavjud qarashlar, an'anaviy tasavvurlar va bilimlar doimo shubha ostiga olinishi kerakligini ta'kidlaydi. Dekartning "Cogito, ergo sum" g'oyasi fikrlashni inson mavjudligining ontologik mezoniga aylantirib, tanqidiylikni bilishning zaruriy sharti sifatida muhrladi. Shu tariqa, Dekart epistemologiyada mantiqiy qat'iyat, shubha va aqliy tahlilning o'rnini tubdan o'zgartirgan. I. Kantning "Sof aql tanqidi" asari esa tanqidiy tafakkur rivojining eng yuksak bosqichlaridan biridir. Kant inson tafakkurining imkoniyatlari va chegaralarini o'rgangan holda, bilimni "fenomenal" va "noumenal" qatlamlarga ajratadi. Uning nazariyasiga ko'ra, inson faqat o'zining bilish doirasi va aqliy kategoriyalari orqali shakllangan tajribani anglay oladi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashni aqlning o'zini tekshirishiga asoslangan murakkab refleksiv jarayon sifatida talqin qilishga imkon beradi. Kantning aql, bilish va mantiqiy kategoriyalar haqidagi qarashlari zamonaviy ta'lim, xususan, bo'lajak chet tili o'qituvchilari uchun tahliliy fikrlash, dalillash madaniyati va ilmiy asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Sharq uyg'unlash davri falsafasi ham tanqidiy tafakkur taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan bo'lib, Al-Farobiy, Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar tafakkur, bilish va ilmiy dalillashning mohiyatini chuqur tahlil qilganlar. Al-Farobiy "Aql fazilatlarini" haqida yozarkan, aqlni insonning eng oliy bilish qudrati sifatida baholab, tafakkurning mantiqiy asoslangan bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino "Kitob ash-Shifo"da mantiqiy kategoriyalar, sabab–oqibat munosabatlari, analogiya va deduksiya usullarini ilmiy bilishning markaziga qo'yadi. Beruniy esa tajriba, kuzatish, taqqoslash va shubha metodlariga tayangan holda tanqidiy ilmiy yondashuvning Sharqdagi eng erta namoyandalaridan biriga aylandi Zamonaviy falsafada tanqidiy yondashuv. XX asr falsafasi tanqidiy tafakkurni ilmiy bilishning bosh tamoyili, ijtimoiy ongning regulyatori va axborotni baholashning universal mexanizmi sifatida talqin qildi. J.G. Meadning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida tanqidiy fikrlash shaxsning ijtimoiy o'zini anglash jarayonida refleksiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Meadga ko'ra, individning har bir fikri jamiyatdagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi va insonning o'z rolini anglash jarayoni tanqidiy fikrni talab etadi. K.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Popperning “falsifikatsiya prinsipi” zamonaviy tanqidiy tafakkurning asosiy me’yorlaridan biri hisoblanadi. Popper ta’riflaganidek, har qanday ilmiy nazariya tanqid uchun ochiq, sinovdan o’tuvchi va rad etilish ehtimoliga ega bo’lsa, haqiqiy ilmiy maqomga ega bo’ladi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashni har bir dalilni qayta ko’rib chiqish, dalillarni tahlil qilish va xatolarni bartaraf etish jarayoni sifatida talqin etadi. Jon Dewey esa tanqidiy tafakkurni “reflektiv fikrlash” sifatida izohlab, bilishning faol bosqichlari — muammoni sezish, tahlil qilish, taxmin ilgari surish, tekshirish va xulosa chiqarish — tanqidiy fikrlashning pedagogik modelini tashkil etishini ko’rsatadi. Deweyning yondashuvi zamonaviy ta’limda muammoli o’qitish, tadqiqotga yo’naltirilgan o’qitish va tajribaga asoslangan pedagogikaning shakllanishiga zamin yaratdi. O’zbekiston olimlari zamonaviy tanqidiy tafakkur konsepsiyasini rivojlantirishga o’z ilmiy hissalarini qo’shganlar: B. Nazarov shaxsning ijtimoiy-axloqiy dunyoqarashi va tanqidiy tafakkuri o’rtasidagi dialektik bog’liqlikni asoslaydi; A. Abdurahmonov innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida ko’rsatadi; Sh. Ismoiljonov va N. Mamajonova tanqidiy tafakkurning yosh davrlarga xos rivojlanish qonuniyatlarini va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini konseptual tahlil qilgan. Zamonaviy falsafada tanqidiy fikrlash shaxsning murakkab axborot oqimida yo’l topish, dalillarni baholash, bilimni qayta tekshirish, ilmiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish qobiliyatining asosiy ko’rsatkichi sifatida qaraladi. Bu yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning poydevoriy komponentiga aylangan.

Muammoli ta’lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, yechim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo’llaniladigan bir yangicha tizimdir. Muammoli ta’limning ilk g’oyalari amerikalik psixolog va pedagog Dj.Dyui (1859-1952) tomonidan asoslanadi. Muammoli ta’lim Dj.Dyui muammoli ta’lim asosi sifatida quyidagi yo’nalishlarni belgilaydi. ijtimoiy konstruktiv badiiy ifodaviy ilmiy-tadqiqot

Uammoli ta’limning afzalliklari Ta’lim jarayoni qiziqarli va motivatsion bo’ladi— o’quvchilar “o’zim yechimtopaman” degan yondashuv bilan ishlaydi. Fikr yuritish, tanqidiy fikrlash va izlanish ko’nikmalari mustahkamlanadi. Bilim passiv qabul qilinishdan ko’ra chuqurroq o’zlashtiriladi— muammoni yechish jarayonida o’rganilgan ma’lumotlar kontekstga bog’lanadi. Hamkorlik, kommunikatsiyava guruhda ishlash ko’nikmalari rivojlanadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi bosqichlari muammo vaziyatini yaratish savol qo’yish farazlar ilgari surish izlanish va muhokama qilish yechim topish va asoslash xulosa chiqarish. Moslashtirilgan o’qitish— har bir o’quvchining ehtiyojiga qarab, o’rganish yo’llari va tezliklari farqlanishi mumkin.

Xulosa: Tanqidiy fikrlash inson tafakkurining tarixiy, falsafiy, psixologik va pedagogik rivojlanishida markaziy o’rin egallab kelgan murakkab kognitiv jarayon bo’lib, bugungi globallashtirish va axborotlashuv davrida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Antik davr mutafakkirlari — Suqrotning sokratik suhbatlari, Platonning dialektikasi, Aristotelning mantiq tizimi va Sharq allomalari Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniylarning ilmiy-daliliy yondashuvlari



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



tanqidiy fikrlashning falsafiy poydevorini yaratgan. Yevropa mumtoz falsafasida Dekartning universal shubhasi, Kantning sof aqlni tanqid qilish tamoyili epistemologik tekshiruvning metodik asosiga aylangan bo'lsa, XX asrda J. Dewey, K. Popper, J. Mead kabi mutafakkirlar tanqidiy fikrlashni ilmiy bilishning markaziy elementi, ijtimoiy ongning reflektiv mexanizmi sifatida talqin qildilar.

Psixologiya fanida tanqidiy fikrlash kognitiv jarayonlar — idrok, tafakkur, xotira, refleksiya, metakognitsiya va emotsional-intellektual omillar bilan uzviy bog'liq murakkab aqliy faoliyat turi sifatida izohlanadi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi, Sternbergning analitik intellekt modeli tanqidiy fikrlashning psixologik mexanizmlarini chuqur ilmiy asoslaydi. O'zbekiston olimlarining (A. Abdurahmonov, O. Usmonov, B. Nazarov, Sh. Ismoiljonov, N. Mamajonova) izlanishlari tanqidiy fikrlashning kognitiv, yoshga oid, motivatsion va pedagogik omillari bo'yicha mahalliy ilmiy maktablar shakllanayotganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159
2. Ibn Sino. Donishnoma (Kitob an-Najot). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
3. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti – 2022. – B. 54–120.
4. Facione, P. A. (1990). Critical thinking: A statement of expert consensus for purposes of educational assessment and instruction. Millbrae, CA: The California Academic Press.
5. Facione, P. A. (2000). The disposition toward critical thinking: Its character, measurement, and relation to critical thinking skill. *Informal Logic*, 20(1), 61–84.
6. Halpern, D. F. (2001) Assessing the effectiveness of critical thinking instruction. *The Journal of General Education*, 50(4), 270–286.
7. Dewey J. *How We Think*. – Boston: D.C. Heath & Co., 1978. – p. 125.
8. Popper K. *The Logic of Scientific Discovery*. – London: Routledge, 2002. – p. 98.
9. Paul R., Elder L. *The Miniature Guide to Critical Thinking*. – California: Foundation for Critical Thinking, 2014. – p. 45.
10. Ennis R. *Critical Thinking*. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – p. 12.
11. Piaget J. *The Psychology of the Child*. – New York: Basic Books, 1972. – p. 87.
12. Vygotsky L.S. *Mind in Society*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – p. 63.
13. Sternberg R. *Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – p. 52.
14. Goleman D. *Emotional Intelligence*. – New York: Bantam Books, 1995. – p. 89.